



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(6)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 406 sahifa,
22-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

“Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	10
Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	
Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni	14
Arolov Davronjon Davlataliyevich	
Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish	19
Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi	
Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti.....	22
Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	26
Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi	
Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	30
Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna	
Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati.....	35
Hojiyeva Nasiba Bahodirovna	
Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari.....	39
Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati	43
Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati.....	48
Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi	
Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari	54
Nusratova Mexriniso Baxshilloevna	
Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi o‘rni.....	59
Pulatova Dilfuza Azamkulovna	
Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....	66
Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li	
Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi	70
Qurbonova Sevara Suyunovna	
Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari	74
Raxmatov Oxunjon Soibjonovich	
“Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari.....	79
Saidova Feruza Akramovna	
Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.....	84
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
“So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi.....	88
Toxirova Dilshoda Inom qizi	
Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash	92
Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi	
Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari.....	96
Xaydarova Go‘zalxon	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati.....	101
<i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i>	
Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari	105
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish.....	109
<i>Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna</i>	
O'quvchilarda modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadigan faoliyat usullari	114
<i>Abdurazzaqov O'ktam Abduqayumovich</i>	
Dizartriya shakllarining klinik-patogenetik tahlili va differensial diagnostikasi	120
<i>Axmedova V. T.</i>	
Boshlang'ich sinflarda fanlararo yondashuvga asoslangan integrativ topshiriqlar ishlab chiqishning uslubiy asoslari.....	127
<i>Elmurodova Inoyat Abdumutalibovna</i>	
Deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiylashuvining psixologik determinantlari.....	132
<i>Elov Ziyodullo Sattorovich</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida talabalar o'quv natijalarini baholashning pedagogik modeli.....	138
<i>Ernazarov Mirzohid Yo'ldosh o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	145
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv tilshunoslikni joriy etish masalalar	150
<i>Mamatova Gulshan Amankulovna</i>	
Doston musiqiy merosini o'rganishni uslubiy takomillashtirish mazmuni.....	153
<i>Qo'shayev Ilhom Axtamovich, Nasirova Sevinch Ismatovna</i>	
"Elektr yoritish" fanida mustaqil ta'limning zamonaviy shakllari.....	157
<i>Nasretdinova Feruza Nabiyeвна</i>	
Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish	162
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Kuchkorova Robiya Shuxrat qizi</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	167
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
A Methodological Model for Developing Pedagogical Reflection in Pre-Service EFL Teachers.....	172
<i>Rahimberdiyeva Maftuna Rakhimberdi kizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzining kasbiy kompetentlikka ta'siri	177
<i>Raximova Saboxat Qaxramon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda interaktiv texnologiyalar va faol ta'lim metodlarining samaradorligi	182
<i>Safarova Nigora Nasilloevna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida interfaol usullarning mazmuni, turlari va funksional ahamiyati.....	190
<i>Safarova Soliha Ilhomovna</i>	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati... 196	
<i>Saotmuratova Zebo Yuldash qizi</i>	
Musiqqa ta'limida interfaol metodlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	200
<i>Saparov Raxim Muratbayevich</i>	
Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida.....	204
<i>Xolmatova Yodgoroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Energetika fanlarini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik afzalliklari.....	208
<i>Zoxidov Iqboljon Zokirjonovich</i>	
Методическая модель контекстуального обучения в формировании лингвокультурной компетенции при обучении русскому языку в национальных группах	213
<i>Рустамова Ферузaxon Махмуджановна</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Integrating Artificial Intelligence into EFL Academic Writing Instruction: Opportunities, Challenges, and Pedagogical Implications..... 218 Allamurodov Elyor Tursun ugli	218
	Sahna nutqida adabiy tur va janrlarning metodik talqini..... 223 Dilrabo Jumanova	223
	Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim ekotizimi: imkoniyatlar va xavflar 227 Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li	227
	Z avlod bilan ishlashda ta'lim va tarbiyaga oid zamonaviy tendensiyalar 232 Ravshanov Sanjar Tolibjonovich	232
	Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati... 235 Saotmuratova Zebo Yuldash qizi	235
	Tarixiy-ilmiy materiallar va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining geometrik tafakkurini rivojlantirish metodikasi..... 239 Toshpulatova Mamura Ismailovna, Mannonova Dilafro'z Ravshan qizi	239
	Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish va muvofiqlashtirish ... 244 Xakimov Abdug'ulom Soyibjonovich	244
	Ingliz tilini boshqa sohadagilarga o'qitishda grammatik jihatlar 247 Ataboyeva Guliruxsor Baxtiyor qizi	247
	Methodological Foundations for Developing Environmental Education Through the Integration of Climate Change Education Into Biology Lessons in General Secondary Schools..... 250 Abdurakhmanova Iqbolkhon Yulchiyevna	250
	Sharq va G'arb mutafakkir olimlarining oila va farzand tarbiyasi borasidagi qarashlari 255 Berdiyeva Dilnoza A'zamovna	255
	Ommaviy sport turlari yordamida ayollarni sog'lom turmush tarziga yo'naltirishda ilmiy yondashuv 258 Charos Axmadova	258
	STEAM integratsiyasi orqali maktab o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish 262 Choriyor Maxmatraimov Eshmamatovich	262
	Maktabgacha ta'lim kafedrasida bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion-metodik faoliyatga tayyorlashni transformatsion boshqarish texnologiyasi 267 Djalalov Baxromjan Begmurzayevich	267
	Raqamli transformatsiya sharoitida yosh ota-onalarda yolg'izlik hissining namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik omillar 272 Erimmetova Nafisa Bahromovna	272
	Zamonaviy ta'lim muhitida talabalarning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi va uning strategiyalari 279 Haqberdiyeva Dinora Qobil qizi	279
	Maktab direktorlarining moliyaviy boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish tehnologiyalari..... 283 Karimov Jaxongir Abdunabiyevich	283
	Jadidlar merosiga e'tibor: tarixiy xotira va ma'naviy tiklanish omili..... 287 Madaminova Shaxodat Shomurotovna	287
	Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limdagi o'rni va nutqni baholashdagi imkoniyatlari..... 293 Mahmudova Maftuna Aktam qizi	293
	Effectiveness of Simulator Technologies in Pilot Training: an Experimental Study 297 Maksudov Ilhomjon Turgunboy o'g'li	297
	Yangi O'zbekistonda o'qituvchi maqomining huquqiy kafolatlari va pedagogik faoliyat samaradorligi..... 301 Menlibayeva Azima Oralbayevna, Oralbayeva Aziza	301
	Raqamli jamiyat sharoitida ong transformatsiyasining falsafiy jihatlari..... 305 Muxitdin Nazarov	305
	10-11-sinf o'quvchilarida o'qishdan yozuvga o'tish ko'nikmasini rivojlantirishning bosqichli metodik tizimi ... 310 Nazarova Shoiraxon Abdumo'min qizi	310
	Zamonaviy ta'lim paradigmasida "potensial" tushunchasi: shaxsning rivojlanishga qaratilgan ichki imkoniyatlari, bilim, ko'nikma, qobiliyat va kompetensiya..... 314 Qurbonova Gulmira Alisher qizi	314



Deffenbacherning driving anger scale metodi asosida haydovchilarning agressiv xulq-atvorining psixologik xususiyatlarini jinslar kesimida o'rganish	318
Rahim Usmonov Raxmonali o'g'li	
Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	323
Sadoqat Sarmanova Shermahmatovna	
Vizual axborot: paydo bo'lish tarixi, qo'llanish sohalari va ta'lim jarayonidagi ahamiyati.....	328
To'g'izboyev Faxriddin Ulashovich	
Fizika darslarini tashkil etishning mazmuni, mohiyati va didaktik tamoyillari.....	334
Turabova Lobar Xusen qizi	
Ekstrakorporal urug'lantirish orqali tug'ilgan bolalarda xotiraning rivojlanishi	339
Usmonova Xusnora Ergashovna	
Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining emotsional barqarorligini shakllantirish.....	344
Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna	
Milliy va xalq o'yinlari vositasida talabalarni sog'lomlashtirish.....	347
Ahmedov Gayratjon Kosimovich	
Деонтология медицинского персонала: этико-профессиональные ориентиры в условиях современной медицины.....	350
Бабаджанова Гулчеҳра	
Формирование творческого восприятия учащихся на уроках музыки.....	355
Габдульманова Ильнура Минисламовна	
Qizlar tarbiyasida maktab va mahalla hamkorligi monitoring tizimini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	358
Abdurazoqova Marg'uba Muxammad qizi	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarida iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish pedagogik muammo sifatida	362
Ergashova Dilafro'z	
Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy karyerani shakllantirishning metodologik asoslari	365
Hayitova Sarvinoz Mahmudovna, Ilmiy rahbar: Ashirova Sojida Baxromovna	
Pedagogical and Methodological Foundations for Developing an Interactive Mobile Application for Teaching English to Preschool Children (Based on the Solobee Project).....	368
Khurshida Kuchkarova	
O'spirinlarda kiberbullingning profilaktikasi va psixokorreksion imkoniyatlari.....	373
Ibodova Gulimehr Inoyat qizi	
Pedagogical Factors and Didactic Conditions for Developing Communicative Competence in Future Teachers.....	378
Mirzayeva Gulshan Azamatovna	
Musiqqa ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari.....	382
Altmisheva Maftunabonu Baxtiyor qizi	
The Importance of the Concept of Discursive Competence in Teaching English.....	386
Mukhamatjonova Diyora Rustam qizi	
Koxlear implantli bolalarni ta'lim jarayoniga moslashtirishning korreksion-pedagogik asoslari.....	390
Najimova Muhabbat	
Alfa avlod uchun internet xavflari klassifikatsiyasi metodlarini ishlab chiqish klassifikatori	393
Ahralov Shavkat Sulaymonovich, Ahrorova Sevara Sulaymon qizi	
Aqli zaif o'quvchilar ta'limida sensor integratsiyaning pedagogik imkoniyatlari.....	398
Tajibayeva Shaxnoza Abdumuxtorovna	
Koxlear implantatsiyali o'quvchilarning psixologik-pedagogik rehabilitatsiyasi samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.....	401
Yuldasheva Saodat Utkurovna	



KOXLEAR IMPLANTATSIYALI O'QUVCHILARNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK REABILITATSIYASI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT- KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Yuldasheva Saodat Utkurovna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: O'zbekistonda har yili o'rtacha 800-850 nafar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tug'iladi. Agar chaqaloqlarda eshitish nuqsonlari o'z vaqtida aniqlanmasa va ularni bartaraf etish choralarini ko'rilmasa, bu bolalar kelajakda jamiyatga ijtimoiy moslashish jarayonida jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Bugungi kunda ushbu muammoning yechimi sifatida koxlear implantatsiyadan foydalanilmoqda. Mamlakatimizda 2014-yildan boshlab zaif eshituvchi va kar bolalar uchun koxlear implantatsiya operatsiyasi davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirilmoqda. Koxlear implantatsiya faqat eshitish analizatorining funksiyasini tiklaydi hamda eshitish idrokini rivojlantirish va nutqni o'zlashtirish uchun fiziologik asos yaratadi. Operatsiyadan so'ng koxlear implantli bolalarni psixologik-pedagogik reabilitatsiya qilish zarurati yuzaga keladi. Psixologik-pedagogik reabilitatsiya koxlear implantli bolalarni ijtimoiy hayotga integratsiyalash va inklyuziv ta'limga yo'naltirishda muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda psixologik-pedagogik reabilitatsiya jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanish usullari yaxshi samara bermoqda. Ushbu metodikalar koxlear implantli bolalarning eshitish-nutqiy va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda kommunikativ integratsiya ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: koxlear implant, psixologik-pedagogik reabilitatsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, inklyuziv ta'lim, audioverbal metod, eshitish-nutq qobiliyati, kognitiv qobiliyat, kommunikativ ko'nikmalar.

Abstract: Every year, an average of 800-850 children with hearing impairments are born in Uzbekistan. If hearing impairments in infants are not identified in a timely manner and appropriate measures are not taken, these children may face serious difficulties in the process of social integration in the future. Today, cochlear implantation is used as a solution to this problem. In Uzbekistan, since 2014, cochlear implantation surgery for hearing-impaired and deaf children has been financed from the state budget. Cochlear implantation only restores the function of the auditory analyzer and creates a physiological foundation for the development of auditory perception and speech acquisition. After surgery, psychological and pedagogical rehabilitation of children with cochlear implants becomes necessary. Psychological and pedagogical rehabilitation plays an important role in integrating children with cochlear implants into social life and facilitating their inclusion in inclusive education. Today, methods of using information and communication technology tools in the process of psychological and pedagogical rehabilitation are yielding positive results. These methodologies are aimed at developing the auditory-speech and cognitive abilities of children with cochlear implants and fostering their communicative integration skills.

Key words: cochlear implant, psychological and pedagogical rehabilitation, information and communication technologies, inclusive education, audio-verbal method, auditory-speech abilities, cognitive abilities, communicative skills.

Аннотация: Ежегодно в Узбекистане рождается в среднем 800-850 детей с нарушениями слуха. Если нарушения слуха у младенцев своевременно не выявляются и не принимаются меры по их коррекции, эти дети могут столкнуться с серьезными трудностями в процессе социальной интеграции в общество. Сегодня в качестве решения данной проблемы используется кохлеарная имплантация. В нашей стране с 2014 года операции по кохлеарной имплантации для слабослышащих и глухих детей финансируются за счёт государственного бюджета. Кохлеарная имплантация лишь функционально восстанавливает слуховой анализатор, создавая физиологическую основу для развития слухового восприятия и усвоения речи. После операции возникает необходимость в психолого-педагогической реабилитации детей с кохлеарными имплантами. Психолого-педагогическая реабилитация играет важную роль в интеграции таких детей в общественную жизнь и их включении в инклюзивное образование. Сегодня методы использования средств информационно-коммуникационных технологий в процессе психолого-педагогической реабилитации демонстрируют хорошие результаты. Эти методики направлены на развитие слухоречевых и когнитивных способностей детей с кохлеарными имплантами, а также на формирование у них навыков коммуникативной интеграции.

Ключевые слова: кохлеарный имплант, психолого-педагогическая реабилитация, информационно-коммуникационные технологии, инклюзивное образование, аудиовербальный метод, слухоречевые способности, когнитивные способности, коммуникативные навыки.

KIRISH

Bugungi kunda eshitishida nuqsone bo'lgan bolalarni jamiyatga moslashtirish, ularning eshitish-nutqiy, kognitiv va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish maxsus pedagogikaning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Kohlear implantatsiya eshitish imkoniyatini tiklashda muhim tibbiy-texnologik yechim bo'lsa-da, uning samaradorligi bevosita operatsiyadan keyingi psixologik-pedagogik rehabilitatsiya jarayonining to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq. Chunki implantatsiya faqat fiziologik asos yaratadi, bolaning nutqni idrok etishi, talaffuz ko'nikmalari, muloqotga kirishishi va inklyuziv ta'lim muhitiga moslashuvi esa uzluksiz, tizimli va individual yondashuvga asoslangan pedagogik qo'llab-quvvatlashni talab etadi. Shu jihatdan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kohlear implantli o'quvchilarning rehabilitatsiya jarayonini samarali tashkil etish, eshitish va nutqiy mashqlarni qiziqarli shaklda olib borish, ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish hamda ta'lim jarayonini maktab va oila sharoitida davom ettirish imkonini beradi. Nutq insonlar o'rtasidagi muloqotning asosiy vositasi bo'lib, ularning butun hayoti davomida samarali aloqa o'rnatishiga xizmat qiladi hamda hayot faoliyatining normal kechishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, har 1000 nafar boladan 1-2 nafari eshitish qobiliyati buzilgan holda tug'iladi. Afsuski, yurtimizda yiliga o'rtacha 800-850 nafar eshitishida nuqsone bo'lgan chaqaloq dunyoga kelmoqda. Chaqaloqlarda eshitish nuqsонlari o'z vaqtida aniqlanmasa va ularni bartaraf etish choralarini ko'rilmasa, bu bolalar kelajakda jamiyatga ijtimoiy moslashish jarayonida jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.

Bugungi kunda ushbu muammoning yechimi sifatida kohlear implantatsiyadan foydalanilmoqda. Kohlear implant tizimi yuqori texnologiyali qurilma bo'lib, quloq orqasida joylashgan nutq protsessori hamda jarrohlik yo'li bilan teri ostiga joylashtiriladigan implant va elektrodlar majmuasidan iborat [6]. Mamlakatimizda bolalar salomatligini muhofaza qilish, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning hayot sifatini oshirish va ularning jamiyatga ijtimoiy moslashuvini ta'minlash masalalariga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. 2014-yildan boshlab kar bolalarga yordam berish maqsadida kohlear implantatsiya operatsiyalari davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirilmoqda [1].

Ko'p yillik tajriba shuni ko'rsatadiki, kohlear implantatsiya bo'yicha amalga oshirilgan operatsiya to'liq rehabilitatsiyani ta'minlay olmaydi, balki faqat eshitish qobiliyatini tiklash va rivojlantirish uchun fiziologik asos yaratadi. Eshitish qobiliyatini to'liq tiklash uchun esa rehabilitatsiya zarur hisoblanadi [1, 7].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kohlear implantatsiyadan keyingi psixologik-pedagogik rehabilitatsiya samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muammolari bo'yicha qator xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Tadqiqotchi O.I. Kukushkinaning fikricha, psixologik-pedagogik rehabilitatsiya jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quv qo'llanmalari doirasini yanada kengaytiradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari an'anaviy usullar bilan yaratish mumkin bo'lmagan rivojlantiruvchi va korreksion vazifalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan ta'lim sharoitlarini yaratadi [3].

Tadqiqotchi G.S. Abdullayeva maxsus ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning korreksion-tarbiyaviy imkoniyatlarini tahlil qilib, imkoniyati cheklangan shaxslarni o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar yetarli emasligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, maxsus ta'lim jarayoniga AKTni joriy etish korreksion vazifalarni hal qilish qiyin bo'lgan vaziyatlarda qisqa vaqt ichida zarur natijalarga erishish hamda korreksiya jarayonini individuallashtirish imkonini beradi [2].



Tadqiqotchi Ye.P. Trifonova koxlear implantli o'quvchilarning eshitish va nutq qobiliyatlarini rivojlantirish hamda muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda bevosita hal qiluvchi rol o'ynaydigan kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish korreksion ishlar samaradorligini oshirishini ta'kidlaydi [5].

Tadqiqotchi T.K. Korolevskayaning fikriga ko'ra, o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari asosida yaratilgan "Ovozli dunyo" kompyuter dasturi eshitish-nutqiy va kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga, shuningdek, surdopedagogik ishlar jarayonida kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi [4].

Tadqiqotchi Yu.B. Zelenskayaning ta'kidlashicha, "Speech Viewer" ("Ko'rinadigan nutq") kompyuter dasturi o'ziga xos til xususiyatlarini hisobga olgan holda qayta ishlanishi, shuningdek, bir tilda so'zlashuvchi nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni nutqiy reabilitatsiya qilishda muvaffaqiyatli qo'llanilishi va yuqori natijalarga erishishga xizmat qilishi mumkin [6].

Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, psixologik-pedagogik reabilitatsiya jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish koxlear implantatsiya qilingan boshlang'ich sinf o'quvchilarida eshitish-nutqiy va kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga, shuningdek, kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Hozirgi vaqtda koxlear implantatsiya ko'p hollarda operatsiyadan keyingi psixologik-pedagogik reabilitatsiya bosqichining yetarli darajada tashkil etilmasligi tufayli kutilgan samarani bermayapti. Bugungi kunda ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'lim olayotgan koxlear implantli o'quvchilar umumiy o'quvchilar sonining o'rtacha 10-13 foizini tashkil etadi. Amaldagi nizomga ko'ra, koxlear implant olgan o'quvchilar 2-5 yil davomida psixologik-pedagogik reabilitatsiyadan o'tgandan so'ng inklyuziv ta'limga o'tishlari kerak. Biroq koxlear implantatsiya qilingan o'quvchilarning aksariyati umumiy o'rta ta'limni tamomlagunga qadar ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda o'qishni davom ettirmoqda. Ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda koxlear implantli o'quvchilarni psixologik-pedagogik reabilitatsiya qilish jarayonini o'rganish natijasida quyidagi holatlar aniqlandi:

- psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash va yetarli nutqiy muhit mavjud emas, koxlear implantli o'quvchilar muloqot jarayonida asosan daktil alifbo va imo-ishora tilidan foydalanadilar;
- psixologik-pedagogik reabilitatsiya doirasida frontal va individual mashg'ulotlardan tashqari qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etilmaydi;
- psixologik-pedagogik reabilitatsiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanilmaydi;
- psixologik-pedagogik reabilitatsiya doirasida ota-onalar bilan metodik hamkorlik yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan, ularda zarur bilim va ko'nikmalar yetishmaydi;
- koxlear implantli o'quvchilar oilaviy muloqotda asosan tinglovchi sifatida ishtirok etadilar, topshiriqlarni bajaradilar va o'z faoliyatlarini odatiy xatti-harakatlar asosida tashkil etadilar.

Ular ko'pincha qisqa "ha" yoki "yo'q" javoblari hamda imo-ishoralardan orqali o'z munosabatlarini bildiradilar. Lug'at boyligining cheklanganligi sababli o'z fikrlarini erkin ifodalashda qiyinchilikka duch keladilar. Shu bois ular ko'proq imo-ishoralardan foydalanishni afzal ko'radilar.

Ixtisoslashtirilgan maktab-internat va oila sharoitida psixologik-pedagogik reabilitatsiya jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari o'rganilib, quyidagilar aniqlandi:

- ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlangan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xonalariga ega;
- deyarli har bir o'quvchi smartfonga ega bo'lib, undan foydalanishni biladi hamda internet va Telegram orqali zarur resurslarni mustaqil topa oladi;
- koxlear implantli o'quvchilarning 62 foizi uyda kompyuter, noutbuk yoki planshetga ega bo'lib, ulardan foydalanish bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega;
- koxlear implantli o'quvchilarning 90 foizi har kuni uy sharoitida 2-4 soat davomida kompyuter, noutbuk, planshet yoki telefonda turli o'yinlar o'ynaydi;
- zaif eshituvchi o'quvchilar AKT vositalari bilan ishlash jarayonida monitordagi boshqaruv buyruqlarini to'liq tushunmaydilar, chunki ular asosan ingliz yoki rus tillarida taqdim etiladi.

Shu sababli ular topshiriqlarni ko'proq ko'rish xotirasida saqlangan ko'nikmalar asosida bajaradilar. Olingan ma'lumotlar asosida ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar va oilalar sharoitida koxlear implantli o'quvchilarni psixologik-pedagogik reabilitatsiya qilishga tabaqalashtirilgan yondashuvning tashkiliy-metodik jihatlari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, psixologik-pedagogik reabilitatsiya jarayonida koxlear implantli o'quvchilarni inklyuziv ta'limga tayyorlashning maxsus ishlab chiqilgan metodikasi asosida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda eshitish-nutqiy va kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish, kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish uchun yetarli imkoniyatlar mavjud. Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internat va oila sharoitida psixologik-pedagogik reabilitatsiya jarayonini tahlil qilish, AKT vositalaridan foydalanish shakllari, usullari va vositalarini aniqlash, model, natijalarni baholash mezonlari va monitoring tizimini ishlab chiqish, IT-dasturlar, audiovizual vositalar va videokurslarni yaratishga qo'yiladigan pedagogik talablarni belgilash hamda ularni qo'llash metodikasini ishlab chiqish zarur.

Muammoning yechimini topish maqsadida Toshkent davlat texnika universiteti Biotibbiyot muhandisligi kafedrasida mutaxassislar bilan hamkorlikda koxlear implantli bolalarning eshitish-nutqiy va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish, kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan dasturiy ta'minot hamda uning mazmuniga qo'yiladigan pedagogik talablar va uni psixologik-pedagogik reabilitatsiya jarayonida qo'llash usullarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi. Tadqiqot natijasida eshitish va nutq buzilishlarini bartaraf etishga qaratilgan "Uy logopedi" (so'zlarning to'g'ri talaffuzini nazorat qiladi), "Star Spectral Analysis Program of Speech" (nutqning spektral tahlilini amalga oshiradi), "Star Tune" (nutqsiz tovushlarning eshitish idrokini nazorat qiladi), "Speech UZ" (o'zbek tilining grammatik tuzilishini shakllantiradi) kompyuter dasturlarining eksperimental versiyalari ishlab chiqildi. Dastur mazmunini ishlab chiqishda tovushlarni bo'g'inlarga, bo'g'inlarni so'zlarga, so'zlarni esa gaplarga bog'lash orqali nutq materialini bosqichma-bosqich murakkablashtirish tamoyiliga asoslanildi. Nutq materiali bolalarning yoshi, eshitish va nutq qobiliyatlarining rivojlanish darajasi, shaxsiy qiziqishlari, maxsus ta'lim dasturining mazmuni, bolaning reabilitatsiya imkoniyatlari, mavjud nutq buzilishlari va oilaviy sharoitlari hisobga olingan holda tanlandi. Mashg'ulotlarni qiziqarli va samarali tashkil etish maqsadida bolalarning oila a'zolari bilan kundalik faoliyatini aks ettiruvchi multfilmlar, kinofilmlar, videoroликlar hamda foto va videomateriallardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari koxlear implantli o'quvchilarning aksariyati ota-onalari tomonidan ta'til davrida pedagogik va psixologik reabilitatsiya ishlari yetarli darajada olib borilmasligini ko'rsatdi. Shu sababli o'quvchilarning ta'lim jarayonida shakllangan auditiv-nutqiy ko'nikmalarining muayyan qismi ta'til davrida sustlashadi yoki unutiladi. Ushbu holatning oldini olish maqsadida kompyuter va smartfonlarga yuklash hamda uy vazifalarini bajarishga mo'ljallangan "Eshiting, ko'ring, birgalikda to'g'ri talaffuz qiling" nomli veb-platforma ishlab chiqildi. Mazkur platforma yordamida o'quvchilar ta'til davrida onlayn va mustaqil ravishda shug'ullanishlari mumkin. Bu mashg'ulotlar ta'lim jarayonida shakllangan auditiv-nutqiy ko'nikmalarni saqlab qolish va mustahkamlashga xizmat qiladi. Tajriba-sinov ishlari davomida olingan dastlabki natijalar shuni ko'rsatdiki, psixologik-pedagogik reabilitatsiya jarayonida qo'llaniladigan dasturiy ta'minot bilan ishlash koxlear implantli bolalarda yuqori qiziqish uyg'otdi. Bu esa ularning mashg'ulotlarda faol ishtirok etishiga hamda alohida mashg'ulotlar samaradorligining oshishiga yordam berdi.

XULOSA

Tadqiqot natijalarini koxlear implantli bolalarni psixologik-pedagogik reabilitatsiya qilish jarayoniga tatbiq etish ularning eshitish-nutqiy va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish, kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish hamda inklyuziv ta'limga o'tishiga yordam beradi. Natijada koxlear implantli bolalarni ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda o'qitish va parvarishlash uchun ajratiladigan byudjet mablag'larini tejash imkoniyati yaratiladi. Bundan tashqari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda oila muhitida koxlear implantli bolalar bilan olib boriladigan onlayn va mustaqil mashg'ulotlar ota-onalarning surdopedagog mashg'ulotlariga sarflaydigan vaqt va mablag'larini kamaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. У. Файзиёва, Д. Назарова, Ф. Қодирова. Сурдопедагогика. Ўқув кўлланма. Тошкент: "Сано Стандарт", 2012.
2. G.S. Abdullayeva. Maxsus va inklyuziv ta'limda AKTning o'rni. Monografiya. Toshkent: Mahalla va Oila, 2022. – 180 b.
3. О.И. Кукушкина. Использование информационных технологий в различных областях специального образования. Диссертация на соискание учёной степени доктора педагогических наук. Москва, 2005. – 381 с.



4. Т.К. Королевская. Учимся слушать и слышать: компьютерная программа “Звучащий мир” // Воспитание и обучение детей с нарушениями развития. – 2010. – № 5. – С. 33-42.
5. Е.П. Трифонова. Использование информационно-компьютерных технологий в коррекционной работе по развитию познавательной сферы глухих школьников. Диссертация на соискание учёной степени кандидата педагогических наук. Москва, 2008. – 286 с.
6. Ю.Б. Зеленская. Использование компьютерной программы “Speech Viewer” (“Видимая речь”) в процессе логопедического воздействия. Диссертация на соискание учёной степени кандидата педагогических наук 13.00.03 (коррекционная педагогика). Мурманск, 2003. – 164 с.
7. В. Elsendoorn. Information Technology and Deaf Pupils // Issues in Deaf Education. London: David Fulton Publishers, 1999.
8. Cochlear Implant Rehabilitation in Children and Adults / Ed. D. Allum. London: Whurr Publishers, 1995. – 325 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(6)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.